Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.111

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ROZILIK VA RAD ETISH NUTQIY AKTLARINING REAKTIV TABIATI HAMDA ULARNING QIYOSIY PRAGMATIK TAHLILI

Shokhista Nusratullaeva*

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

✉ gamletovashokhista@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola rozilik va rad etish nutqiy aktlarining ingliz va o‘zbek tillaridagi realizatsiyasini reaktiv nutqiy akt nazariyasi nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, mazkur ikki akt ko‘pincha mustaqil hodisa sifatida emas, balki oldingi so‘roq, taklif yoki iltimosga nisbatan ikkinchi navbatda yuzaga keladigan javob sifatida qaraladi, biroq bu yondashuv o‘zbek tilshunosligida hali yetarlicha o‘rganilmagan. Tadqiqot maqsadi ingliz va o‘zbek nutqiy amaliyotida rozilik va rad etishning bilvositalik darajasini, strukturaviy tuzilishini hamda xushmuomalalik strategiyalarini qiyoslashdan iborat. Materiallar uchun badiiy va publitsistik matnlardan olingan dialogik parchalar, shuningdek ilgari e’lon qilingan lingvopragmatik tadqiqotlar ma’lumotlari jalb etildi. Usul sifatida qiyosiy tipologik tahlil, nutqiy akt nazariyasi asosidagi kontekstual tahlil va navbat almashinuvi tahlili qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida rad etish asosan bilvosita strategiyalar, jumladan afsuslanish, bahona va muqobil taklif orqali yumshatiladi, o‘zbek tilida esa bunga qo‘shimcha ravishda yosh va ijtimoiy mavqega asoslangan hurmat shakllari muhim rol o‘ynaydi. Rozilik ikkala tilda ham qisqa va bevosita, “afzal ko‘rilgan” javob sifatida namoyon bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, ikki til orasidagi farq ko‘proq miqdoriy emas, balki sifatiy xarakterga ega bo‘lib, u xushmuomalalik me’zonlarining madaniy asoslanganligidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar

nutqiy akt, pragmatika, rozilik, rad etish, reaktiv akt, qiyosiy tahlil, xushmuomalalik nazariyasi, bilvosita nutqiy akt, ingliz tili, o‘zbek tili

DOI: 10.5281/zenodo.23278297

Kirish

Kundalik muloqotda odam bir-biriga savol beradi, taklif qiladi, iltimos bildiradi, javobida esa rozi bo‘ladi yoki bosh tortadi. Bu ikki javob turi, ya’ni rozilik va rad etish, sirtdan qaraganda oddiy ko‘rinsa-da, ular hech qachon bo‘sh joyda tug‘ilmaydi, balki oldin aytilgan gapga tayangan holda shakllanadi. Masalan, ingliz tilida “*Could you look over my draft tonight?*” degan iltimosga “*Oh, I would love to, but I have already promised my sister I would help her move this evening*” tarzidagi javob, o‘zbek tilida esa “*Ertaga kechqurun mehmonga kelasizmi?*” degan taklifga “*Albatta kelaman, faqat bir soat kechroq bo‘lishi mumkin*” tarzidagi javob, ikkalasi ham mustaqil ravishda emas, aynan suhbatdoshning avvalgi gapiga tayangan holda tuziladi. J. Ostin o‘z vaqtida nutqning shunchaki axborot berish uchungina emas, balki harakat qilish uchun ham xizmat qilishini ko‘rsatib bergan edi [1;6]. Uning shogirdi J. Serl bu g‘oyani davom ettirib, nutqiy aktlarni bir necha katta guruhga ajratdi [2;10]. Ushbu tezisda biz aynan shu nazariy poydevorga tayangan holda, rozilik va rad etishning ikkinchi navbatda, ya’ni boshqa aktga javoban paydo bo‘luvchi hodisa ekanligini ingliz va o‘zbek tili misolida ko‘rsatishga harakat qilamiz. O‘zbek tilshunosligida bu masala ko‘pincha faqat grammatik tasdiq inkor

shakllari nuqtai nazaridan qaraladi, rad etishning ijtimoiy muloqotdagi murakkab, ko‘p bosqichli tabiatiga esa yetarlicha e’tibor berilmagan. Shu boisdan tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida rozilik va rad etishning bilvositalik darajasini, tuzilishini hamda muloqotdagi vazifasini o‘zaro qiyoslashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun avval nazariy tushunchalar aniqlashtiriladi, so‘ngra ikki tildan olingan konkret misollar tahlil qilinadi, oxirida esa ikki til orasidagi o‘xshashlik va farqlar umumlashtiriladi.

Materiallar va usullar

Tadqiqot uchun material sifatida biz o‘zimiz tuzgan hamda kundalik muloqotdan kuzatgan dialog namunalaridan, shuningdek badiiy matnlardagi so‘zlashuv parchalaridan foydalandik. Bunday o‘z tajribamizdan olingan misollar tanlanishining sababi shundaki, tayyor korpus materiallari ko‘pincha faqat bitta madaniyat doirasida to‘plangan bo‘ladi, o‘zbek va ingliz tilini bir xil mezon asosida solishtirish esa alohida yondashuvni talab qiladi. Metodologik jihatdan Bibi va hamkasblarining rad etish strategiyalari tasnifidan foydalanildi, unga ko‘ra rad etish to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bilvosita hamda qo‘shimcha unsurlarga bo‘linadi [3;72]. Har bir misol shu uch guruhdan qaysi biriga to‘g‘ri kelishi, qaysi til unsurlari (undov so‘z, pauza, kechirim, bahona) ishlatilganligi alohida qayd etildi. Bundan tashqari, ingliz va o‘zbek tilidagi qiyosiy tadqiqotlar tajribasidan ham foydalanib, ikki tildagi bilvosita nutqiy aktlarning umumiy tendensiyalari inobatga olindi [6;141]. Tahlil ikki bosqichda amalga oshirildi, avval har bir misolning lokutiv va illokutiv qatlami ajratildi, so‘ngra rad etish yoki rozilikning javobda qaysi o‘rinda, qanday shaklda kelganligi solishtirildi.

Natijalar va muhokama

To‘plangan misollarni ko‘zdan kechirsak, qiziq bir manzara ko‘zga tashlanadi. Rozilik ikkala tilda ham deyarli bir xil tarzda, hech ikkilanmasdan beriladi. Masalan, ingliz tilida “*Shall we start at nine?*” degan savolga “*Yes, nine works fine*” javobi, o‘zbek tilida esa “*Soat to‘qqizda boshlaymizmi?*” degan savolga “*Xo‘p, to‘qqiz bo‘laversin*” javobi bir zumda, hech qanday qo‘shimcha izohsiz keladi. Bu holat Pomeransning “afzal ko‘rilgan javob” haqidagi g‘oyasini [4;63] eslatadi, garchi men bu yerda uning modelini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llamay, o‘z kuzatuvimga tayanib xulosa chiqardim. Rad etish esa boshqacha manzara ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi “*Could I borrow your car tomorrow?*” degan iltimosga “*Oh gosh, I would, but I actually need it myself for the market run*” javobi kabi misollarda so‘zlovchi darhol yo‘q demaydi, avval afsuslanish bildiradi, keyin sabab ko‘rsatadi. O‘zbek tilida bunga o‘xshash holat, masalan “*Menga bugun mashinangizni bersangiz bo‘ladimi?*” degan iltimosga “*Voy, uzr, o‘zim ham bozorga borishim kerak edi, ertaga bersam bo‘ladimi*” javobida kuzatiladi, biroq bu yerda yana bir qatlam qo‘shiladi, ya’ni muqobil taklif bilan bir qatorda kechirim so‘rash unsuri kuchliroq ifodalanadi. Bizningcha, bu farqning sababi shundaki, o‘zbek muloqot madaniyatida rad etish shunchaki suhbatdoshning istagiga “yo‘q” deyish emas, balki uning hurmatini saqlab qolgan holda “yo‘q” deyishning o‘zi alohida ma’naviy vazifa bajaradi. Quyidagi jadvalda shu kuzatuvlar umumlashtirilgan.

Xususiyat	Ingliz tili misoli	O‘zbek tili misoli
Darhol yo‘q deyish	Deyarli uchramadi	Deyarli uchramadi
Afsuslanish yoki kechirim	Mavjud, qisqa	Mavjud, kengaytirilgan
Sabab yoki bahona	Doimo mavjud	Doimo mavjud
Murojaat shakli yoki hurmat unsuri	Kam uchraydi	Tez-tez uchraydi

1-jadval. *Ingliz va o‘zbek tilidagi rad etish namunalarining tuzilishi.*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikki tilda ham bilvosita rad etish strategiyalari ustunlik qiladi, biroq ularning ichki tarkibi bir xil emas. Ingliz tilida bahona va afsuslanish yetarli bo‘lsa, o‘zbek tilida bunga yosh, mavqe va qarindoshlik munosabatlariga qarab o‘zgaruvchi murojaat shakllari ham qo‘shiladi. Bu kuzatuv Kaponettoning rad etishni mustaqil emas, balki oldingi aktga bog‘liq ikkinchi navbat hodisasi sifatida talqin qilishiga to‘g‘ri keladi [5;2], chunki har ikki misolda ham javobning shakli avvalgi iltimosning kim tomonidan, kimga qanday ohangda aytilganiga bog‘liq bo‘lib chiqdi.

Xulosa

O‘tkazilgan kichik tahlil shuni ko‘rsatdiki, rozilik va rad etish ikkala tilda ham suhbatdoshning avvalgi gapiga bog‘liq holda shakllanadigan javob turlari ekan. Rozilik qisqa va tezkor, rad etish esa bosqichma-bosqich va yumshatilgan tarzda keladi, bu ikkala tilga ham xos umumiy qonuniyat. Ammo rad etishning ichki tuzilishida farq bor, ingliz tilida shaxsiy sababga, o‘zbek tilida esa ko‘proq ijtimoiy hurmat unsurlariga urg‘u beriladi. Shu narsa aniqki, chet tilini

o‘rgatishda faqat grammatik to‘g‘rilikni emas, balki rad etishning qaysi vaziyatda qanday yumshatilishini ham ko‘rsatish kerak, aks holda o‘rganuvchi to‘g‘ri gapirsa-da, noto‘g‘ri tushunilishi mumkin. Kelajakda bu mavzuni kengroq, og‘zaki nutq yozuvlari asosida davom ettirishni rejalashtirmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford, Clarendon Press, 1962. 166 p. Manba, https://archive.org/details/austin-how-to-do-things-with-words

[2] Searle, J. R. A classification of illocutionary acts // Language in Society. 1976. Vol. 5, No. 1. Pp. 1–23. Manba, https://www.cambridge.org/core/journals/language-in-society/article/abs/classification-of-illocutionary-acts1/C51AB2FEB1BFD115FE9B066A8669789D

[3] Beebe, L. M., Takahashi, T., Uliss-Weltz, R. Pragmatic transfer in ESL refusals // Scarcella, R., Andersen, E., Krashen, S. (eds.) On the Development of Communicative Competence in a Second Language. New York, Newbury House, 1990. Pp. 55–73. Manba, https://www.researchgate.net/publication/309352845_Pragmatic_Transfer_in_ESL_Refusals

[4] Pomerantz, A. Agreeing and disagreeing with assessments, some features of preferred and dispreferred turn shapes // Atkinson, M., Heritage, J. (eds.) Structures of Social Action, Studies in Conversation Analysis. Cambridge, Cambridge University Press, 1984. Pp. 57–101. Manba, https://www.apomerantz.com/wp-content/uploads/2015/04/agreeingdisag23d.pdf

[5] Caponetto, L. The pragmatic structure of refusal // Synthese. 2023. Vol. 201, No. 4. Pp. 1–17. Manba, https://link.springer.com/article/10.1007/s11229-023-04177-4

[6] Direct and Indirect Speech Acts in English and Uzbek Languages // Zenodo, 2026. B. 140–143. Manba, https://zenodo.org/records/17712073